

SUN'IY INTELEKTNING MUALLIFLIK HUQUQIGA OID MUAMMOLAR VA ULAR TAHLILI

Choriyev Ulug'bek Rustamovich
Toshkent davlat yuridik universiteti
Ommaviy huquq fakulteti, 2-kurs talabasi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada sun'iy intellektning mualliflik huquqi, sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan obyektlarga nisbatan mualliflik huquqini belgilashning turli yondashuvlarini, ushbu yondashuvlarning keng nazariy-ilmiy, qonunchilikdagi va sud keyslari orqali tahlillari keltirib o'tiladi. Shuningdek, masalalar tahlili bo'yicha qonunchiligimizga kiritishimiz mumkin bo'lgan taklif berib o'tiladi. Ushbu maqolaning dolzarbligi sun'iy intellektning paydo bo'lishi yangi va kutilmagan muammoni keltirib chiqarishi, bu esa mualliflar huquqini muhofaza qilishda muvozanatga erishishni qiyinlashtirishi va oxir-oqibat mualliflar huquqi buzilishiga olib kelishi bilan bog'liq. Ushbu ma'lumotlarning aniqligini oshirish maqsadida turli xil statistika va qonunchilik hujjatlaridan keng foydalanildi. Mavzu doirasida xorijiy va milliy olimlarning fikrlaridan, ilmiy ishlaridan, qilgan tadqiqot natijalaridan, Gazeta va junrallardan, xorij mamlakatlari qonun hujjatlaridan maqsadli havolalar berildi. Sun'iy intellektning mualliflik huquqiga oid masalani oydinlashtirish qanchalik muhimligi ask ettirildi.

Kalit so'zlar: Sun'iy intellekt (ayrim hollarda SI), muallif, obyekt, originallik, ijodkorlik, mualliflik huquqi, buyruq beruvchi, sun'iy intellekt dasturchisi yoki yaratuvchisi, jismoniy shaxs, hammualliflik.

PROBLEMS OF COPYRIGHT IN RELATION TO ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND THEIR ANALYSIS

Choriyev Ulug'bek Rustamovich
Tashkent State University of Law
Faculty of Public Law, 2nd-year student

ABSTRACT

This article discusses the issues of copyright related to artificial intelligence (AI), different approaches to defining copyright for objects created by AI, and analyzes these approaches from theoretical, legislative, and judicial perspectives. The article also offers suggestions for possible amendments to current legislation. The relevance of this topic lies in the fact that the emergence of AI raises new and unexpected challenges, complicating the balance in protecting authors' rights and potentially leading to copyright infringements. Various statistics and legal documents have been used to enhance the accuracy of the data presented. Opinions of national and foreign scholars, scientific research, newspapers, journals, and references to foreign legislation are widely cited within the topic. The article emphasizes the importance of clarifying copyright issues related to artificial intelligence.

Keywords: Artificial intelligence (AI), author, object, originality, creativity, copyright, prompt engineer, AI developer or creator, natural person, co-authorship.

ПРОБЛЕМЫ АВТОРСКОГО ПРАВА В СВЯЗИ С ИСКУССТВЕННЫМ ИНТЕЛЛЕКТОМ И ИХ АНАЛИЗ

Чориев Улугбек Рустамович

Ташкентский государственный юридический университет

Факультет публичного права, студент 2 курса

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются вопросы авторского права, связанные с искусственным интеллектом (ИИ), различные подходы к определению авторских прав на объекты, созданные ИИ, а также проводится их анализ с

теоретической, законодательной и судебной точек зрения. Также предложены возможные изменения в действующее законодательство. Актуальность темы заключается в том, что появление ИИ вызывает новые и неожиданные проблемы, усложняя достижение баланса в защите авторских прав и в конечном итоге может привести к их нарушению. Для повышения точности информации использованы различные статистические данные и правовые документы. В статье широко цитируются мнения отечественных и зарубежных ученых, научные работы, материалы газет и журналов, а также законы иностранных государств. Подчеркивается важность разъяснения вопросов авторского права, связанных с ИИ.

Ключевые слова: Искусственный интеллект (ИИ), автор, объект, оригинальность, творчество, авторское право, дающий команду, разработчик или создатель ИИ, физическое лицо, соавторство.

KIRISH

Hozirgi rivojlangan jamiyatda qidiruv tizimlari kundan kunga rivojlanib bormoqda. Avval hayotimizni “google” qidiruv tizimisiz tasavvur qila olmagan bo'lsak, hozir sun'iy intellektsiz tasavvur qila olmaydigan davrga kelyapmiz. Sun'iy intellekt shunchalik tez hayotimizga kirib keldiki, bu barcha davlatlardagi huquqshunoslarni shoshirib qo'ydi. Chunki keng tarqalgan va juda muhim masalalardan biriga aylandi va albatta bu kabi masalalar huquq normalar bilan tartibga solinadi. Sun'iy intellektni umumiy huquqiy tartibga solish masalasini bitta maqolada yoritib chiqish, shunchaki imkonsiz degan fikrdamiz. Chunki sun'iy intellekt kirib kelgan har bir soha alohida e'tiborga molik mavzu hisoblanadi. Shuni hisobga olgan holda, biz ushbu maqolada asosan, sun'iy intellektning mualliflik huquqi masalasini tahlil qilamiz. Mualliflik huquqiga oid masalalarni tartibga solishda ko'pchilik holatlarda davlatlar Bern konvensiyasiga asoslanadi. Biroq bu ijtimoiy munosabat nihoyatda zamonaviyligi tufayli bu haqidagi

normalarni Bern konvensiyasida uchratmaymiz. Bu esa o'z navbatida davlatlarda ushbu yangi ijtimoiy munosabatni qonunchilikda qanday tartibga solish kerak degan muammoni o'rta tashladi.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotning maqsadi sun'iy intellekt tomonidan yaratilayotgan obyektlarga nisbatan mualliflik huquqini kimga berishga oid nazariy va amaliy muammolarni tadqiq qilishdir. Tadqiqotning asosiy maqsadi ushbu muammolarni tahlil qilish asnosida ularga oid turli yechimlarni analiz qilish va ularning kamchiliklarini ko'rsatib o'tgan holda maqbul yechimni topishdir. Ushbu maqsadlarga erishish uchun muallif ilmiy tadqiqotning sotsiologik tahlil, qiyosiy tahlil, mantiqiy tahlil kabi bir qancha usullarni qo'llagan.

TADQIQOT NATIJALARI

Sun'iy intellektning mualliflik huquqiga oid muammoni tahlil qilishdan oldin sun'iy intellektning o'zi nima ekanligini bilib olish zarur. Zero, tushunchani mazmun-mohiyatini anglamay turib, unga hech qachon yechim topish mumkin emas. Sun'iy intellekt tushunchasi haqida dunyo aholisining juda ko'pchiligida umumiy tasavvur mavjud bo'lsa-da, unga ta'rif berishda halicha yakdil fikrga kelinmagan. Quyida shu mavzuda ijod qilganlarning ayrimlarining fikrlarini keltirib o'tamiz:

Sun'iy intellekt - bu sun'iy intellekt tizimlarining kognitiv funktsiyalarni namoyon qilish qobiliyati: o'rganish, shu jumladan o'z tajribasidan, berilgan parametrlarga moslashish va ilgari faqat odamlar (yoki undan yuqori hayvonlar) uchun mavjud bo'lgan vazifalarni bajarish [1].

"Sun'iy intellekt - bu insonning kognitiv funktsiyalarini taqlid qilish (shu jumladan o'z-o'zini o'rganish va oldindan belgilangan algoritmsiz yechimlarni topish) va hech bo'lmaganda inson intellektual faoliyati natijalari bilan

taqqoslanadigan aniq vazifalarni bajarishda natijalarga erishish imkonini beruvchi texnologik yechimlar to'plami [2].


Sun'iy intellekt - bu muhandislik va ilm-fanning kombinatsiyasi bo'lib, ularda muammolarni hal qila oladigan va hatto odamlar kabi harakat qiladigan yoki ular kabi aql-idrokka ega bo'loladigan texnologiya [3].

Bundan tashqari oxirgi yillardagi islohotlar natijasida O'zbekiston qonunchiligida ham sun'iy intellektga alohida e'tibor qaratila boshlandi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi 358-sonli qaroriga 1-ilova 1-bobida sun'iy intellekt tushunchasiga quyidagicha ta'rif beriladi:

Sun'iy intellekt — insonning bilim va ko'nikmalariga taqlid qilish imkonini beruvchi (shu jumladan, mustaqil ravishda o'rganish va yechimlarni izlash) hamda aniq vazifalarni bajarishda inson aqliy faoliyati natijalari bilan taqqoslanadigan natijalarni olish imkonini beradigan texnologik yechimlar majmui [4].

Sun'iy intellekt tushunchasi ma'nosini anglab olgan bo'lsak, endi asosiy muammoga o'tamiz. Sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan obyektlarga mualliflik huquqini belgilash bo'yicha olimlar turli yondashuvlarni ilgari suradi: birinchi guruh - sun'iy intellektning mualliflik huquqi tan olinishi kerakligi tarafdori **(I)**; boshqa guruh olimlar esa sun'iy intellekt yaratgan obyektga nisbatan mualliflik huquqi sun'iy intellektni yaratgan odamga berilishi kerak deb hisoblaydi **(II)**; yana ba'zilar turli sud ishlari orqali sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan obyektlarga mualliflik huquqi unga buyruq bergan shaxsga tegishliligining tarafdori **(III)**; shuningdek, ayrimlar bunday holatlarda obyekt ijtimoiy mulk bo'lishi zarur degan g'oyani ilgari suradi **(IV)**. Oxirgi guruh olimlari nazdida esa sun'iy intellekt orqali yaratilgan obyekt hammualliflikdagi obyekt sifatida qaralishi kerak **(V)**.

Ushbu yondashuvlar bo'yicha fuqarolar fikrini bilish maqsadida telegram platformasida ijtimoiy so'rovnoma o'tkazdik. So'rovnoma natijalarini quyidagi



rasmda

ko'rishingiz mumkin:

So'rovnomada eng ko'p yon bosilgan nazariya sun'iy intellekt orqali yaratilgan obyektни ijtimoiy mulk sifatida topishdan iborat bo'ldi. Bunda so'rovnomada ishtirok etgan odamlarning 34 foizi shu variant uchun ovoz berdi [5].

Endi esa bevosita har bir yondashuvni alohida tahlil qilishga o'tamiz. Birinchi guruhdagi nazariyadan boshlaydigan bo'lsak, ushbu fikrni haqiqattan yiroq deb hisoblaymiz. Bunga bir qator sabablarni keltirish mumkin. Birinchidan, milliy qonunchiligimiz va xorijiy davlatlar qonunchiligida ham muallif sifatida jismoniy shaxslar tan olinadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi "Mualliflik va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonunning 3-moddasida muallifga quyidagicha ta'rif beriladi: "**muallif** — ijodiy mehnati bilan obyekt yaratgan jismoniy shaxs" [6]. Shu o'rinda jismoniy shaxs tushunchasiga ta'rifni ham ochiqlashimiz zarur. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 16-moddasiga ko'ra, jismoniy shaxs deganda O'zbekiston Respublikasining fuqarolari, boshqa davlatlarning fuqarolari, shuningdek fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tushuniladi [7]. Sun'iy intellekt jismoniy shaxs bo'la olmasligiga sabablardan biri sifatida sun'iy intellektning odamlar kabi bo'la olmasligini keltirish mumkin. Bunda vujudga kelayotgan muammo mazmuni shundan iboratki, milliy huquqiy tizimimizda ham, chet el huquqiy tizimida ham mualliflik huquqining amal qilishiga muddat belgilanadi. Bunda ushbu muddatning

o'tishiga yuridik fakt sifatida muallifning vafot etishi olinadi. Chunonchi, "Mualliflik va turdosh huquqlar to'g'risida" gi qonunning 35-moddasida "Mualliflik huquqi muallifning butun hayoti davomida va uning vafotidan keyin yetmish yil davomida amal qiladi" deb mustahkamlangan. Ushbu asosimizni yanada aniqroq tushuntirish uchun sud amaliyotidan *Naruto v. Slater* ishi ("Maymun selfisi" ishi deb ham mashhur)ni misol keltiramiz.

"Bu sud ishi 2011-yilda fotoga tushgan maymun suratiga egalik qilish huquqi masalasida bo'lib o'tgan. Fotograf Devid Slater Indoneziyada fotosuratlar olish paytida Naruto ismli qora makaka kamerani ushlab, selfi suratga tushgan. Bu surat internetda mashhur bo'lib ketgach, hayvonlar huquqlarini himoya qiluvchi "People for the Ethical Treatment of Animals" (PETA) tashkiloti 2015-yilda Slaterga nisbatan ish qo'zg'atdi.

Asosiy savol: *Suratga mualliflik huquqi kimga tegishli? PETA maymun nomidan ish qo'zg'atib, surat muallifi Naruto ekanligini va suratdan tushadigan daromad maymunning manfaatiga ishlatilishi kerakligini da'vo qildi. Slater esa surat uning kamerasi yordamida olinganini aytib, huquqni o'zida saqlab qolmoqchi bo'ldi.*

Sud qarori: *AQSh sudyasi maymunning mualliflik huquqiga ega bo'la olmasligini ta'kidlab, Slater foydasiga qaror chiqardi. Sud bu qarorda faqat insonlar mualliflik huquqiga ega bo'lishini asos qildi".*

Ushbu sud ishini sizlarga taqdim qilishimizdan maqsad shuki, mualliflik huquqi subyekti sifatida e'tirof etilmagan jamiki jonli va jonsiz obyektlar mualliflik huquqiga ega bo'la olmaydi. Bu sun'iy intellekt ham subyekt sifatida e'tirof etilmaguncha mualliflik huquqiga ega bo'la olmasligini isbotlaydi. Endi ayni shu subyekt masalasida boshqa mashhur sud keysini e'tiboringizga havola qilamiz:

"2014-yilda Camlin kompaniyasi National Pencil Industries kompaniyasini mualliflik huquqini buzganlikda ayblab, o'z qadoqlash materiallari ustidan

mualliflik huquqini himoya qilishni so'ragan. Camlin kompaniyasi o'zining mahsulot qadoqlari (kartonlari) ustidan huquqqa ega ekanligini ta'kidlagan. Biroq, National Pencil Industries bu da'voga qarshi chiqqan.

Sud qarori: *Delhi Oliy sudi bu holatni ko'rib chiqib, "muallif" tushunchasini batafsil tushuntirdi. Sudning ta'kidlashicha:*

- *Mualliflik huquqi faqat tabiiy shaxslar (ya'ni haqiqiy odamlar) tomonidan yaratilgan ijodiy asarlarga nisbatan taalluqli.*
- *Mexanik ravishda bosib chiqarilgan, ya'ni mashina yordamida ko'paytirilgan kartonlar mualliflik huquqi bilan himoyalanganmaydi, chunki bu asarni haqiqiy muallif yaratmagan".*

Bu sud ishida ham muallif tushunchasiga alohida ta'rif berilib faqat odamlar mualliflik huquqi subyekti bo'lishi aytiladi. Bu ham sun'iy intellektning mualliflik huquqini rad etadi.

Ikkinchidan, muallif bo'lish uchun jismoniy shaxs bo'lishdan tashqari yana bir talabni unutmaslik kerak, ya'ni – bu ijodiy mehnatning zarurligi. Yuqorida keltirgan "muallif" tushunchasiga ta'rifimizda bu ifodalanib ketilgan. Bundan tashqari, bunga Brigitte Vézina and Brent Moran juda qiziq argumetni ilgari suradi: "Bir sun'iy intellektga berilgan buyruq boshqa sun'iy intellektga berilsa aksariyat holatlarda bir xil natija chiqariladi. Bu esa obyektning ijodiy bo'lishini inkor etadi" [8]. Shunday bo'lsa-da kelajakda SI ga huquq subyekti sifatidagi huquqlari vujudga kelishini yo'qlab chiquvchi olimlar yo'q emas. Xususan, Odamga o'xshash robotni rivojlantirgan Dr. David Hanson sun'iy intellekt 2045-yilgacha huquq subyekti sifatidagi fuqarolik huquqlariga ega bo'lishini ta'kidlaydi [9] Ya'ni bunda David Hanson sun'iy intellektning o'zini-o'zi rivojlantirish xususiyatlarini hisobga olgan holda sun'iy intellekt sudda da'vogar va javobgar bo'lish, mualliflik huquqlariga ega bo'lishini bildirgan. Qolaversa, Gabriele sun'iy intellektga intellektual mulk huquqlarini berish yuzasidan ko'rib chiqish kerak bo'lsa ham,

hozir vaqti emas, chunki AI uni ko'rib chiqish kerak bo'lgan rivojlanish darajasiga chiqmagan [10]. Gabrielening ushbu fikridan Sun'iy intellekt hali mualliflik huquqining egasi bo'lish darajasida rivojlanmagan degan mohiyatni tushunish mumkin.

Ikkinchi guruhdagi olimlar fikri nisbatan asosliroq hisoblanadi. Xususan, huquqshunos olim Farr Evanning fikricha, sun'iy intellektni yaratgan shaxsga mualliflik huquqini berish quyidagi asoslarga ko'ra maqbul hisoblanadi: birinchidan, sun'iy intellekt yaratuvchisi sun'iy intellektni yaratadi aynan shu orqali potensial yaratiladigan obyektning ham vujudga kelishiga sababchi bo'ladi; ikkinchidan, sun'iy intellekt yaratuvchisiga mualliflik huquqining berilishi unga sun'iy intellektni yaratgani uchun munosib rag'bat bo'la oladi. Garchi olim fikri kamchiliklarsiz ko'rinsa-da, bizningcha sun'iy intellektni yaratish faqatgina potensial obyekt yaratilishigagina sababchi bo'ladi, ayni obyekt yaratilishiga emas. Ushbu fikrimizni yanada aniqroq tushuntirishga Brent Moran va Brigitte Vézina tomonidan bildirilgan quyidagi argument yordam beradi: “mualliflik huquqi vujudga kelishi uchun muallifdan natijaning vujudga kelishiga oid to'g'ridan to'g'ri harakat talab etiladi” [11]. Ikkinchi guruh olimlarining fikrini inkor etuvchi yana bir asos raqobat bilan bog'liq hisoblanadi. Hozirgi kunda barcha e'tibor davlatlarda monopoliyalarning vujudga kelishiga chek qo'yish va barqaror iqtisodiy muhit yaratish uchun barcha tadbirkorlar uchun sog'lom raqobat muhitini yaratishga qaratilgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 65-moddasida: “Davlat bozor munosabatlarini rivojlantirish va halol raqobat uchun shart-sharoitlar yaratadi [12]” degan norma mustahkamlangani ham halol raqobat muhitining qanchalik ahamiyatli ekanligidan darak beradi. Agar sun'iy intellekt yordamida yaratilgan obyektlarga bo'lgan mualliflik huquqini sun'iy intellekt yaratuvchilariga beradigan bo'lsak, bu raqobat muhiti buzilishi mumkin. Chunki normal obyekt yozuvchilari har bir obyektlarini yaratishda o'z intellektlarini va

ijodiy qobiliyatlarini ishlatishadi, biroq sun'iy intellekt yaratuvchilari sun'iy intellektni bir marta yaratish orqali yangi obyektlarni ko'proq va tezroq yozib tugatish imkoniyatiga ega. Shunday bo'lsa-da, WIPO (Jahon intellectual mulk tashkiloti) ma'lumotlariga ko'ra ushbu nazariyani hozirga qadar tarafdori bo'lgan davlatlar bor: Gong Kong, Hindiston, Yangi Zelandiya va AQSH [13].

Uchinchi guruhdagi olimlar mualliflik huquqi buyruq bergan shaxsga tegishli sifatida qaraydi. Birinchidan aynan sun'iy intellektdan foydalangan shaxsning bergan buyrug'i obyekt yaratilishiga sabab bo'ladi. Ikkinchidan, Tuomas Sorjamaa, sun'iy intellektdan foydalanuvchi shaxs buyruqni kreativlikni ishlatgan holda beradi [14]. Hammaga ma'lumki, sun'iy intellektdan biror ma'lumot olish undan so'ralgan savolga qarab har xil bo'lishi mumkin. Ya'ni aynan bir mazmundagi savolni boshqa so'zlar bilan yozish orqali ko'proq yoki kamroq natijani olish mumkin. Bu natijani olishni esa aynan shu jismoniy shaxs amalga oshiradi. Sorjamaa bu fikrni davom ettirib, "Dasturchi sun'iy intellekt yaratish yoki yaratmaslik haqida qaror qiladi va bu natijasida ayni dasturga nisbatan mualliflik huquqini qo'lga kiritadi; foydalanuvchi esa obyekt yaratish uchun buyruq beradi va shu obyektga nisbatan mualliflik huquqini qo'lga kiritadi" [15]. Bundan tashqari, ushbu fikrni yo'qlovchilar o'z fikrlarini Microsoft kompaniyasi "word" dasturini yaratgan lekin word orqali yaratilgan obyektlar Microsoft kompaniyasiga emas, dasturdan foydalanib obyektни bevosita yaratgan shaxsga tegishli bo'ladi deydi. Yoki fotoapparat orqali olingan rasmlar ham fotosuratchiga tegishli bo'lishini aytishadi. Bu argumentlarni inkor qilib, Lusy Rana va Meril Joy o'z obyektlarida sun'iy intellektni shunchaki oddiy vosita sifatida qarab bo'lmasligini va bu alohida yondashuvni talab qilishini aytishadi [16]. Darhaqiqat, bizningcha ham word orqali yaratilgan obyekt va sun'iy intellekt orqali yaratilgan obyektни bir-biriga solishtirib bo'lmaydi. Chunki birinchi usulda, muallifning aqliy faoliyati va mehnati ancha talab qilinsa, ikkinchi holatda bu shunchaki bitta tugmani bosib

qo'yish bilan bog'liq jarayon hisoblanadi. Yanada aniqroq aytganda, mualliflik huquqi buyruq beruvchi shaxsga berilishi ishning originalligiga oid talabga zid. Ishning originally tushunchasi Yevropa ittifoqi qonunchiligiga keltirib o'tilgan. Unga ko'ra ish muallifning shaxsiy intellektual yaratuvi asosidagina vujudga kelgan bo'lsa, original hisoblanadi [17].

To'rtinchi guruhdagi olimlar sun'iy intellekt orqali yaratilgan obyektni ijtimoiy mulk sifatida ko'rishni ilgari suradi. Bunga asos sifatida sun'iy intellektdan hamma, bepul foydalanishi va zaruriy asosni ular ham to'g'ri buyruq berib yarata olishini aytishadi [18]. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, O'zbekiston qonunchiligida ham bu masalada sun'iy intellekt orqali yaratilgan asar ijtimoiy mulk hisoblanadi. Ya'ni "Mualliflik va turdosh huquqlar to'g'risida" gi qonunning 8-moddasiga ko'ra insonning bevosita individual asar yaratishga qaratilgan ijodiy faoliyati amalga oshirilmasdan, muayyan turdagi ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan texnika vositalari yordamida olingan natijalar mualliflik huquqining obyekti hisoblanmaydi. Bu bir qarashda eng to'g'ri tanlov bo'lib ko'rinsa-da, ushbu usul mualliflik huquqining maqsadlariga zid keladi deb fikrlaymiz. Ya'ni mualliflik huquqining asl maqsadi – mualliflarni yanada yangi va foydali obyektlar yaratib, jamiyatga manfaatlar keltirishdir. Qonun ularga huquqlarini himoyalash yo'li bilan motiv berishadi. Ammo sun'iy intellektning ijtimoiy mulk sifatida tan olinishi mualliflarni obyekt yaratishga bo'lgan qiziqishlarini shunchaki o'ldirib qo'yadi. Bizningcha, bu yo'l muammoga yechim topishdan ko'ra ko'proq muammodan qochishga o'xshaydi.

Vanihoyat, beshinchi guruh olimlarining fikriga ko'ra, sun'iy intellekt orqali yaratilgan obyektlar hammualliflikdagi obyekt deb topilishi kerak. Professor Samuelson o'z obyektida ushbu masalani ham tahlil qilib o'tgan va bu ham yaxshi muqobil varianatlardan biri bo'la olishini aytgan [19]. Biroq ushbu masalada, bir qator muammolar bor degan fikrdamiz. Bunday muammolardan biri, taraflardir.

Obyektni yaratish uchun buyruq bergan foydalanuvchini bir taraf sifatida qabul qilishimiz, yetarli darajadagi ijodkorlik singishi kerak degan qoidamizga zid kelib qoladi. Hattoki, bir taraf sifatida buyruq bergan shaxsni tan olgan taqdirimizda ham ikkinchi tarafni aniqlash undanda muammoli bo`lib qoladi. Ya`ni bunda sun`iy intellektni subyekt sifatida tan olmoqchi bo`lsak, u eng avvalo subyekt emas, u hammualliflik shartnomasi tuzilishi uchun zaruriy elementlardan biri bo`lgan erk-irodaga ega emas [20]. Qolaversa, 1957-yilda qabul qilingan Hindiston mualliflik huquqi akti “hammualliflik” tushunchasini quyidagicha ta`riflaydi: “ikki yoki undan ortiq mualliflarning hamkorlikdagi va bir muallifning hissa qo`shishi boshqa muallifdan ajralmagan holdagi ishidir”. Sun`iy intellekt bilan hamkorlik qilib bo`lmaydi, chunki u hali kelishuvga layoqatli darajada takomillashtirilmagan. Sun`iy intellekt dasturchisini ikkinchi taraf sifatida ko`rmoqchi bo`lsak, u obyekt muallifi bo`lish uchun muhim bo`lgan bevosita yoki to`g`ridan to`g`ri ijodkorlik belgisiga ega emas.

Tahlil natijalarimiz shuni ko`rsatdiki, ushbu 5 ta yo`ldan birortasi muammoga yuz foizlik yechimni taqdim eta olmaydi va har birining o`ziga yarasha kamchiliklari bor. Albatta eng kamroq kamchiliklarni keltirib chiqaruvchi variant tanlanishi kerak deyishingiz mumkin, biroq shu kamroq kamchiliklar katta muammolarga sabab bo`lishini unutmaslik kerak. Biz ushbu muammoga boshqacha yondashishni lozim topdik. Ya`ni - bu har bir ishga individual yondashuv belgilash. Chunki eng umumiy yakdil bir usulni obyektiv jihatdan imkonsiz. Fikrimizni yaxshiroq tushuntirib berish uchun bir mashhur sud keysi tahliliga e`tiboringizga havola qilamiz.

“2023-yil noyabr oyida Xitoyda AI tomonidan yaratilgan rasmlar mualliflik huquqi bo`yicha birinchi sud ishi bo`lib o`tdi. Ushbu ishda Pekin Internet sudi AI orqali yaratilgan tasvirning mualliflik huquqi bor deb topdi. Dastlab, da`vogar "StableDiffusion" dasturidan foydalanib, rasmini yaratgan va uni ijtimoiy

tarmoqlarda joylashtirgan edi. Keyinroq, boshqa bir shaxs ushbu rasmni maqolasida foydalanib, huquq buzilishiga sabab bo'ldi. Sud ushbu rasmni da'vogarning intellektual sa'y-harakatlari natijasi sifatida ko'rib, mualliflik huquqini e'tirof etdi va himoya qilishni ta'minladi.

Mazkur qaror AI orqali yaratilgan obyektlarning kelajakda mualliflik huquqlari bilan himoyalanishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Sud qarorida da'vogarning AI yaratishda qo'llagan individual tavsiyalar va sozlamalari rasmga o'ziga xoslik bag'ishlagani va uning mualliflik huquqiga asos yaratgani qayd etilgan".

Ushbu sud ishi ayni masaladagi muhim va juda mashhur keys hisoblanadi. Ushbu qarorda sud asos sifatida rasmning yaratilishida buyruq beruvchining individual tavsiyalari va sozlamalari alohida o'rin tutganligi uchun rasmga nisbatan mualliflik huquqi berilgan. Ya'ni bunday holatda buyruq beruvchi AI dan shunchaki tugmani bossa, natija chiqariv beruvchi sun'iy intellekt sifatida emas, shunchaki o'zining tasavvuridagi ijod obyektini borliqqa chiqarib beruvchi vosita sifatida foydalangan. Ya'ni bu holda rasmning yaratilishi xuddi "word" dasturi orqali yaratilgan obyektga o'xshash bo'lgan. Bu bilan anglatmoqchi bo'lganimiz shuki, sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan obyektlarga oid nizolar kelib chiqqan taqdirda, bu nizolar sudga oshirilishi kerak va sud tomonidan buyruq beruvchining obyekt yaratilishi uchun qilgan mehnatining darajasi, ijodkorligi va ishning originalligi baholanishi kerak. Aynan shularga asoslanibgina mualliflik huquqini belgilash maqsadga muvofiq.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellektning mualliflik huquqini belgilash hozirgi kundagi dolzarb masala hisoblanadi. Shu sababdan ham ushbu masala yechimiga oid turli nazariyalar mavjud. Bizningcha hozir eng keng tarqalgan nazariyalarning barchasi bahsli va o'ziga xos kamchiliklarga ega. Bunda eng

muqobil yechim berish esa har bir ishga sud tomonidan alohida yondashishni talab qiladi. Shuni hisobga olgan holda qonunga sun'iy intellekt orqali yaratilgan asarda mualliflik huquqi masalasini hal qilishga oid norma qo'shishni taklif qilamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Filipova I.A. Sun'iy intellektni huquqiy tartibga solish: ma'ruzalar kursi. Rus tilidan tarjima Z.O. Kuvandikov, mas'ul muharrir A.R. Axatov - Samarqand: Samarqand davlat universiteti, 2022. -179 bet.
2. 2020 yil 24 apreldagi 123-FZ-sonli Federal qonuni "Rossiya Federatsiyasining ta'sis etuvchi subyekti - federal shaharda sun'iy intellekt texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etish uchun zarur shart- sharoitlarni yaratish maqsadida maxsus tartibga solishni o'rnatish bo'yicha eksperiment o'tkazish to'g'risida" ahamiyati Moskva va "Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida" Federal qonunining 6 va 10- moddalariga o'zgartirishlar kiritish // Rossiya Federatsiyasi qonun hujjatlari to'plami. 2020 yil. 17- modda. 2701.
3. Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities Hosted online from Plano, Texas, USA. Sun'iy intellektning mualliflik huquqini belgilash zaruriyati. Zokirov Jahongir/
4. <https://lex.uz/docs/-7158604> - "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi 358-sonli qarori.
5. https://t.me/Huquq_official/6905 - Huquq_official telegram kanali.
6. <https://www.lex.uz/ru/docs/-1022944> – "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida" gi qonun. 3-modda.
7. <https://lex.uz/docs/-111189> – Fuqarolik kodeksi. 16-modda.
8. Brigitte Vézina and Brent Moran, "Artificial Intelligence and Creativity: Why We're against Copyright Protection for AI-Generated Output", *Creative Commons*, August 10, 2020, available at: <https://creativecommons.org/2020/08/10/no-copyright-protection-for-ai-generated-output/> (last visited on January 23, 2021).
9. <https://www.independent.co.uk/tech/robots-civil-rights-android-artificial-intelligence-2045-destroy-humans-sophia-singularity-a8367331.html>
10. Gabriele (2021), Patent Systems and Artificial Intelligence: Towards a New Concept of Inventorship? Zenodo, <https://doi.org/10.5281/zenodo.5720649>
11. Supra note 6 (Yuqoridagi manba 6)
12. <https://lex.uz/docs/-6445145#-6445678> – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 65-modda.
13. https://www.wipo.int/wipo_magazine/en/2017/05/article_0003.html - WIPO jurnali. Sun'iy intellekt va mualliflik huquqi.
14. Wu (n 209), 175
15. Tuomas Sorjamaa, Authorship and Copyright in the age of Artificial Intelligence. P-48.
16. Lucy Rana and Meril Mathew Joy, "India: Artificial Intelligence And Copyright – The Authorship", *Mondaq*, December 18, 2019, available at: <https://www.mondaq.com/india/copyright/876800/artificial-intelligence> and copyright-the-authorship.

17. Council Directive [2009/24/EC](#), Art 1(3), protection of computer programs as “the author’s own intellectual creation”; Database Directive [96/9/EC](#), Art 3(1); [Case C-5/08, Infopaq](#), [ECLI:EU:C:2009:465](#); Information Society Directive, [2001/29/EC](#).
18. *V. K. Ahuja*. Artificial intelligence and copyright: issues and challenges.
19. Samuelson, 'Allocating Ownership Rights in Computer-Generated Works' (n 52), 1221; Dorotheou (n ws48)
20. Lawrence C. Becker, 'Deserving to Own Intellectual Property (1992) 68 Chi.-Kent. L. Rev. 609, 613. See also David Nimmer, 'Copyright in the Dead Sea Scrolls: Authorship and Originality' (2001) 38 Hous. L.Rev. 1